



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **G‘AZZOLIYNING “MISHKOT AL-ANVOR” ASARIDA NUR TIMSOLI ORQALI RUH VA JISM MUNOSABATLARINING TALQINI**

**Axatova Dildora Axtamovna**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada Abu Homid G‘azzoliyning islom falsafasi va tasavvufiy tafakkuri cho‘qqisi hisoblangan “Mishkot al-anvor” (Nurlar tokchasi) asaridagi nur ontologiyasi hamda uning inson antropologiyasidagi markaziy o‘rni tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — nur timsoli orqali ilohiy ma‘rifat, ruhning poklanishi va jism-ruh mutanosibligini tushuntirishdagi fundamental ahamiyatini ochib berishdan iborat. Maqolada insoniy ruhning “nurlar iyerarxiyasi”dagi o‘rni hamda solih bandaning haqiqatga erishish yo‘lidagi to‘siqlari bo‘lmish “Yetmish ming parda” nazariyasi atroflicha yoritiladi. G‘azzoliyning Qur‘oni Karimdagi mashhur “Nur oyati”ni (Ayat al-Nur) germevntik sharhlashda qo‘llagan mishkot (tokcha), misboh (chiroq), zujaja (shisha) va shajara mubarak (muborak daraxt) kabi ramzlari tahlil qilinib, ruhning immaterial tabiatga ega ekanligi hamda uning jism ustidan metafizik hukmronligi borasidagi xulosalari asoslanadi. Tadqiqotda F.Muzaffarov, S.H.Nasr, V.H.T.Gairdner va E.O.Moad kabi taniqli mahalliy va xalqaro olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda, ruhning “ko‘ruvchi nur” (nur al-basira) sifatidagi talqini va insonning axloqiy-ma‘naviy kamoloti orqali haqiqiy saodatga erishish bosqichlari tizimlashtiriladi. Maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, G‘azzoliy nur simvolikasi vositasida ruh va jism o‘rtasidagi murakkab, ammo o‘zaro uyg‘un munosabatni islomiy peripatetizm va ishroqiy falsafa kesishmasida yangi bosqichga olib chiqqan. Mazkur tadqiqot islom falsafasi tarixi, ontologiya va falsafiy antropologiya yo‘nalishidagi izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mishkot al-anvor, G‘azzoliy, nur simvolikasi, ruh, jism, nafs, yetmish ming parda, gnoseologiya, mikrokosmos.

## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СООТНОШЕНИЯ ДУШИ И ТЕЛА ЧЕРЕЗ СИМВОЛ СВЕТА В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛЬ-ГАЗАЛИ «МИШКАТ АЛЬ-АНВАР»**

**Ахатова Дильдора Ахтамовна**

Шахрисабзский государственный педагогический институт, доцент (PhD)

### **Аннотация**

В данной научной статье проводится системный анализ онтологии света и её центральной роли в человеческой антропологии в труде Абу Хамида аль-Газали “Мишкат аль-Анвар” (Ниша света), который считается вершиной исламской философии и суфийской мысли. Основная цель исследования заключается в раскрытии фундаментального значения символа света как божественного просвещения, очищения души и объяснения взаимосвязи души и тела. В статье подробно освещаются положение человеческого духа в “иерархии светов” и теория “Семидесяти тысяч завес”, представляющих собой препятствия на пути праведника к истине. Обосновывается нематериальная природа духа и его метафизическое господство над телом через гермеvntическое толкование известных коранических символов из “Аята о Свете” (Аят ан-Нур), таких как мишкат (ниша), мисбах (светильник), зуджаджа (стекло) и шаджара мубарака (благословенное древо). Опираясь на научные взгляды известных отечественных и зарубежных ученых, таких как Ф.Музаффаров, С.Х.Наср, В.Х.Т.Гэрднер и Э.О.Мoad, систематизируется интерпретация духа как “зрительного света” (нур аль-басира) и этапы достижения истинного счастья через нравственно-духовное совершенствование человека. Результаты исследования

показывают, что аль-Газали посредством символики света вывел сложные, но гармоничные отношения между душой и телом на новый уровень на стыке исламского перипатетизма и философии озарения (ишракизма). Данное исследование служит важным источником для изысканий в области истории исламской философии, онтологии и философской антропологии.

**Ключевые слова:** Мишкат аль-Анвар, Аль-Газали, символика света, душа, тело, нафс, семьдесят тысяч завес, гносеология, микрокосм.

## **INTERPRETATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN SOUL AND BODY THROUGH THE SYMBOL OF LIGHT IN AL-GHAZALI'S "MISHKAT AL-ANWAR"**

**Axatova Dildora Akhtamovna**

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

This scientific article provides a systematic analysis of the ontology of light and its central role in human anthropology within Abu Hamid al-Ghazali's masterpiece, *Mishkat al-Anwar* (The Niche of Lights), regarded as a pinnacle of Islamic philosophy and Sufi thought. The primary objective of the study is to reveal the fundamental significance of the light symbol as a representation of divine enlightenment, the purification of the soul, and the soul-body relationship. The article elaborates on the position of the human spirit within the "hierarchy of lights" and the theory of the "Seventy Thousand Veils", which represent the obstacles a seeker faces on the path to ultimate Truth. The immaterial nature of the spirit and its metaphysical dominion over the body are established through a hermeneutic interpretation of the famous Quranic symbols from the "Verse of Light" (*Ayat al-Nur*), such as *mishkat* (niche), *misbah* (lamp), *zujaja* (glass), and *shajara mubarak* (blessed tree). Drawing upon the scholarly perspectives of prominent local and international researchers such as F. Muzaffarov, S.H.Nasr, W.H.T.Gairdner, and E.O.Moad, the study systematizes the interpretation of the spirit as "perceptive light" (*nur al-basira*) and the stages of attaining true happiness through moral and spiritual perfection. The findings indicate that through the symbolism of light, al-Ghazali elevated the complex yet harmonious relationship between soul and body to a new level at the intersection of Islamic peripateticism and illuminationist philosophy (*Ishraqi*). This research serves as a significant resource for further studies in the history of Islamic philosophy, ontology, and philosophical anthropology.

**Keywords:** *Mishkat al-Anwar*, Al-Ghazali, symbolism of light, soul, body, *nafs*, seventy thousand veils, epistemology, microcosm.

Abu Homid G'azzoliyning "Mishkot al-anvor" ("Nurlar tokchasi") asari mutafakkirning mistik-falsafiy dunyoqarashi va ontologik qarashlari cho'qqisi, uning intellektual evolyutsiyasining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Mazkur asar Qur'oni Karimning "Nur" surasidagi "Nur oyati" (*Ayat al-Nur*) va "Yetmish ming parda" haqidagi mashhur hadisning chuqur falsafiy-irfoniy sharhiga bag'ishlangan. F. Muzaffarov ta'kidlaganidek, G'azzoliy ushbu asari orqali nafaqat islomiy kalomda, balki Sharq falsafasida insonshunoslik va antropologiya sohasida ham "tub burilish" yasagan [Muzaffarov F., 2022, b. 10]. U ruh va jism munosabatini an'anaviy sxolastik qoliplardan chiqarib, nur metafizikasi darajasiga ko'tardi.

Mutafakkir borliqni "Nur" deb ta'riflab, barcha mavjudotlarni Haqiqiy Nurdan (*Al-Nur al-Haqq* — Allohdan) taralgan iyerarxik bosqichlar va akslanishlar sifatida talqin qiladi. G'azzoliyning ushbu ontologiyasida haqiqiy mavjudlik faqat Nurga xos bo'lib, moddiy olam uning turli darajadagi pardalangan ko'rinishidir. Akademik M. Xayrullayev G'azzoliyning ushbu asarda sof mantiqiy ratsionalizmdan ko'ra intuitiv-ishroqiy (*illuminationist*) bilishga va botiniy tajribaga asosiy e'tibor qaratganini qayd etadi [Xayrullayev M., 1971, b. 4]. Bu yondashuv

keyinchalik Shahobiddin Suhravardiy asos solgan “Ishroq” falsafasining shakllanishiga poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi zamonaviy falsafiy antropologiyada insonning ma’naviy mohiyatini anglashda G‘azzoliy taklif etgan simvolik tizim o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Tadqiqotning maqsadi — “Mishkot al-anvor” asaridagi nur timsollari, mikro va makrokosmos munosabatlari hamda “Yetmish ming parda” nazariyasi orqali ruhning jismga nisbatan birlamchiligi, ularning o‘zaro ontologik bog‘liqligi va insonning ilohiy mohiyatga erishish bosqichlarini xalqaro va mahalliy tadqiqotlar kontekstida ochib berishdan iborat.

**1-jadval. “Mishkot al-anvor” asarining konseptual asosi va tadqiqot yo‘nalishlari**

Tahlil qilingan jihatlar	Mazmun va mohiyati	Manba / tadqiqotchi
Asosiy manbalar	“Nur” surasi (35-oyat) va “Yetmish ming parda” haqidagi hadis sharhi	Abu Homid G‘azzoliy
Asosiy konsepsiya	Nur ontologiyasi: borliq — Haqiqiy Nurdan (Alloh) taralgan iyerarxik akslanishlar majmuidir	G‘azzoliy metafizikasi
Ilmiy yangiligi	Insonshunoslik va antropologiyada “tub burilish”: ruh va jism munosabatini nur metafizikasi darajasiga ko‘tarish	F. Muzaffarov [1, 10-b.]
Bilish metodi	Ratsionalizmdan voz kechib, intuitiv-ishroqiy ( <i>illuminationist</i> ) va botiniy tajribaga tayanish	M. Xayrullayev [4, 4-b.]
Antropologik yondashuv	Ruhning jismga nisbatan birlamchiligi; inson — olamning kichik nusxasi (mikrokosmos)	Maqola maqsadi
Tarixiy vorislik	Ushbu g‘oyalar Shahobiddin Suhravardiyning “Ishroq” falsafasi uchun poydevor bo‘lgan	Tarixiy tahlil
Dolzarbligi	Zamonaviy falsafiy antropologiyada insonning ma’naviy mohiyatini simvolik tizim orqali anglash	Zamonaviy kontekst

**MATERIALLAR VA METODLAR**

Ushbu tadqiqotda Abu Homid G‘azzoliyning “Mishkot al-anvor” asaridagi murakkab metafizik g‘oyalarni ochib berish uchun bir necha o‘zaro bog‘liq ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosi sifatida falsafiy germenevtika va simvolik interpretatsiya tanlab olindi. Bu metodlar asardagi “tokcha”, “chiroq”, “shisha” va “zaytun daraxti” kabi Qur’oniylar timsollarni shunchaki moddiy predmetlar emas, balki inson ruhiyati va gnoseologik quvvatlarining metafizik ekvivalentlari sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi manbalar va yondashuvlar metodologik tayanch bo‘lib xizmat qildi:

- Sistemali tahlil va germenevtik yondashuv.** F. Muzaffarovning tadqiqotlarida qo‘llanilgan G‘azzoliy asarlarini yaxlit tizim sifatida o‘rganish metodi asos qilib olindi. Bu yondashuv “Mishkot al-anvor”ni mutafakkirning boshqa asarlari (masalan, “Ihyo ulum ad-din”) bilan mantiqiy bog‘liqlikda, uning insonshunoslik sohasida “tub burilish” yasagan g‘oyalarini aniqlashtirishga xizmat qildi [Muzaffarov F., 2022, b. 12].
- Kosmologik va fenomenologik tahlil.** Seyyid Husayn Nasrning islomiy kosmologiyaga oid asarlaridagi mikrokosmos (inson) va makrokosmos (olam) mutanosibligi nazariyasidan foydalanildi. Bu metod inson ruhidagi nur darajalarini koinotning iyerarxik tuzilishi bilan qiyosiy o‘rganishga yordam berdi [Nasr S., 1993, b. 251].
- Klassik filologik va tanqidiy tahlil.** V. H. T. Gairdnerning asar matni ustida olib borgan fundamental tahlillari metodologik asos sifatida olindi. Gairdnerning nur simvolikasini mantiqiy-psixologik darajalarga ajratish metodi “Yetmish ming parda” nazariyasini tushuntirishda qo‘llanildi [Gairdner W., 1924, b. 52].
- Qiyosiy-tarixiy metod.** M. M. Xayrullayevning Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari dunyoqarashini o‘rganishdagi metodologiyasi asosida G‘azzoliyning intuitiv-ishroqiy

bilish haqidagi qarashlari tarixiy va falsafiy kontekstda tahlil etildi [Xayrullayev M., 1971, b. 4].

Mazkur metodologik majmua asardagi diniy-falsafiy terminlarni zamonaviy falsafiy antropologiya tiliga o'tkazish va ularning ilmiy mohiyatini xolis yoritish imkonini beradi.

G'azzoliy inson ruhini shunchaki moddiy hayot belgisi yoki jismga tobe element emas, balki ashyolarning botiniy mohiyatini ochib beruvchi "nur" deb ta'riflaydi. Tadqiqot natijasida mutafakkirning nur metafizikasi va inson antropologiyasiga oid quyidagi fundamental xulosalari aniqlandi:

**Insoniy nurlar iyerarxiyasi va gnoseologik bosqichlar.** Mutafakkir insonning bilish quvvatlarini beshta iyerarxik nur darajasiga ajratadi: hissiy nur (sezgi a'zolari), xayoliy nur (tasavvur), aqliy nur (umumiy tushunchalar), fikriy nur ( mantiqiy xulosalar) va eng yuqori bosqich — muqaddas naboviy ruh. E. O. Moad tahlilicha, G'azzoliy ruhni "ko'ruvchi nur" (*nur al-basira*) deb atash orqali uning moddiy ko'zdan ustunligini isbotlaydi; chunki moddiy ko'z faqat tashqi ko'rinishni ko'rsa, ruh nuri ashyolarning mohiyatini va o'z-o'zini idrok etish quvvatini ochib beradi [Moad E., 2007, b. 7]. Bu tizim orqali G'azzoliy gnoseologik (bilish) va ontologik (borliq) qarashlarni yagona nur zanjiriga birlashtirgan [Muzaffarov F., 2022, b. 12].

**"Yetmish ming parda" nazariyasining ma'naviy-psixologik tahlili.** G'azzoliy "Allohning nurdan va zulmatdan iborat yetmish ming pardasi bor" degan hadisni sharhlar ekan, bu pardalarni inson kamoloti yo'lidagi uchta asosiy to'siq guruhiga ajratadi:

- **Sof zulmat pardalari:** faqat hissiyot va moddiy dunyoga bog'lanib qolgan nafsoniy quvvatlar.
- **Nur va zulmat aralashgan pardalar:** aql va mantiqdan foydalansa-da, hali ham moddiy tasavvurlardan (masalan, Xudoni jismoniy deb o'ylash) qutulmagan darajalar.
- **Sof nur pardalari:** inson ilohiy sifatlarni anglashda o'z "men"ligidan kecha olmagan eng yuksak ma'naviy maqomlar.

V. H. T. Gairdner talqinicha, bu pardalar insonning Haqiqatni idrok etishiga to'sqinlik qiluvchi subyektiv va obyektiv to'siqlardir [Gairdner W., 1924, b. 52].

**Ruh va jism mutanosibligining simvolik talqini.** "Mishkot al-anvor"da jism va ruh munosabati "Nur" surasidagi timsollar orqali tushuntiriladi. Jism — ilohiy nur taralishi uchun zarur bo'lgan moddiy "tokcha" (*mishkot*), ruh esa uning markazida turgan va borliqni yorituvchi "chiroq" (*misboh*) kabidir. Bu yerda jism ruh uchun shunchaki qamoqxona emas, balki ma'naviy nurning moddiy olamda namoyon bo'lishi va aks etishi uchun xizmat qiluvchi zaruriy vositadir [G'azzoliy, 2017, b. 35]. A. J. Wensinck tahlilicha, bu simvolizm ruhning jismga bo'lgan ehtiyojini emas, balki jismning ruhsiz zulmat ekanini isbotlaydi [Wensinck A., 1941, b. 194].

**2-jadval. G'azzoliyning insoniy quvvatlar (nurlar) iyerarxiyasi va ularning funksiyalari**

Nur darajasi (bosqichlar)	Arabcha atamasi	Oyati karimadagi ramzi	Vazifasi va mohiyati
1. Hissiy nur	Ruh al-hissas	Mishkot (tokcha)	Tashqi olamdan sezgi a'zolari orqali ma'lumotlarni qabul qilish
2. Xayoliy nur	Ruh al-xayal	Zujaja (shisha)	Hissiyotlardan olingan tasvirlarni saqlash va ularni tartibga solish
3. Aqliy nur	Ruh al-aqli	Misboh (chiroq)	Umumiy tushunchalarni shakllantirish va ashyolarning mohiyatini anglash
4. Fikriy nur	Ruh al-fikri	Shajara mubaraka (zaytun daraxti)	Mantiqiy xulosalar chiqarish va bilimlarni bir-biriga bog'lash
5. Muqaddas nur	Ruh al-qudsi	Zayt (zaytun yog'i)	Payg'ambarlar va avliyolarga xos bo'lgan, bevosita ilohiy ilhom (vahy) olish quvvati

G‘azzoliyning nur simbolikasi va ruh-jism munosabati haqidagi qarashlari Aristotel an‘analariga tayanuvchi peripatetik falsafaning quruq mantiqiy xulosalaridan tubdan farq qiladi. Agar mashshoiyyunlar ruhni jismning shakli (*forma*) sifatida ko‘rgan bo‘lsalar, G‘azzoliy “Mishkot al-anvor”da uni “Nurlar Nuridan taralgan ziyo” sifatida talqin etadi.

Seyyid Husayn Nasr ko‘rsatganidek, G‘azzoliy insonni koinotning kichik nusxasi (mikrokosmos) deb biladi. Bu konsepsiyaga ko‘ra, inson jismidagi har bir moddiy a‘zo yoki hissiy to‘siq (parda) ilohiy olamdagi muayyan bir ma‘naviy darajaga yoki “Nurlar iyerarxiyasi”dagi muayyan bosqichga mos keladi [Nasr S., 1993, b. 251]. Bu yondashuv insonning o‘zligini anglashi — olamning haqiqiy mohiyatini anglash bilan barobar ekanini anglatadi. Frank Griffelning tahlilicha, G‘azzoliy ushbu asarida an‘anaviy islom ilohiyoti (teologiya) va neoplatonik falsafani yagona ontologik tizimga birlashtira olgan. Uning fikricha, G‘azzoliy “Nur” tushunchasini borliqning sinonimi sifatida ishlatib, Xudo va olam o‘rtasidagi masofani “nurlar zanjiri” orqali tushuntirib bergan [Griffel F., 2009, b. 224].

F. Muzaffarov G‘azzoliy antropologiyasining o‘ziga xosligini shunda ko‘radiki, mutafakkir talqinida ruh jismni shunchaki tashqi tomondan boshqaruvchi kuch emas, balki jismoniy a‘zolari ilohiy nurni qabul qiluvchi va aks ettiruvchi vositaga aylantiruvchi mohiyatdir [Muzaffarov F., 2022, b. 15]. Bu esa inson tanasining qadrini pasaytirmaydi, aksincha, jismni ruhning nurlanishi uchun zaruriy makon (*mishkot*) darajasiga ko‘taradi.

Shu bilan birga, asarning oxirgi — “Pardalar” bo‘limi ilmiy doiralarda jiddiy munozaralarga sabab bo‘lgan. W. M. Watt asarning ushbu qismidagi ayrim esoterik qarashlar G‘azzoliyning avvalgi, masalan, “Ihyo ulum ad-din” yoki “Al-Munqiz”dagi klassik ash‘ariylik pozitsiyasidan ancha chuqurroq va mistik xarakterga ega ekanini ta‘kidlaydi [Watt W., 1949, b. 8]. Watt hatto bu qismning haqiqiylikiga shubha bilan qaragan bo‘lsa-da, zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan, Hermann Landolt buni G‘azzoliyning mutasavvif sifatidagi intellektual kamoloti va ishroqiy falsafaga yaqinlashuvi natijasi deb baholaydilar. Bu esa G‘azzoliyning ruh haqidagi ta‘limoti nafaqat diniy, balki sof falsafiy metafizika darajasida ham o‘ta murakkab tizim ekanini ko‘rsatadi.

## **XULOSA**

Abu Homid G‘azzoliyning “Mishkot al-anvor” asari bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu yerda nur — shunchaki fizik hodisa emas, balki ruhning haqiqiy, abadiy va asl mohiyatidir. Mutafakkir tomonidan ilgari surilgan nur metafizikasi inson antropologiyasini yangi darajaga ko‘tardi: jism va ruh munosabati endi dualistik kurash emas, balki nurning moddiylikda namoyon bo‘lish darajalari sifatida tushunila boshlandi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

- Inson kamoloti — ruhning o‘zini jismoniy va zulmatli “pardalar”dan (hissiy va moddiy bog‘liqliklardan) bosqichma-bosqich xalos etishi va o‘zining asl manbai bo‘lmish “Nurlar Nuri”ga (*Al-Nur al-Avval*) yaqinlashishida namoyon bo‘ladi.
- “Yetmish ming parda” nazariyasi insonning intellektual va ma‘naviy rivojlanish yo‘lidagi subyektiv to‘siqlarni ifodalaydi. G‘azzoliy talqinicha, inson aql-idroki qanchalik yuksalgan sari, bu pardalar shunchalik shaffoflashib boradi.
- Xalqaro (S. H. Nasr, V. H. T. Gairdner, F. Griffel) va mahalliy (M. Xayrullayev, F. Muzaffarov) tadqiqotchilarning xulosalari bir nuqtada birlashadi: G‘azzoliyning ushbu asari inson antropologiyasini nur ontologiyasi orqali anglashning islom falsafasidagi eng mukammal va murakkab namunasidir.

Xulosa qilib aytganda, “Mishkot al-anvor” nafaqat XII asr islomiy tafakkuri, balki umuminsoniy falsafa uchun ham insonning botiniy dunyosini, uning koinotdagi o‘rni va ilohiy mohiyatini simvollar tili orqali tushuntirib bergan noyob manba bo‘lib qolaveradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Muzaffarov F. D. Imom G‘azzoliyning jahon falsafiy fanlar taraqqiyotidagi o‘rni

va roli: falsafa fanlari doktori (DSc) dis. avtoref. — Buxoro, 2022. — 68 b.

2. Imom G‘azzoliy. *Mishkot al-anvor (Nurlar tokchasi)* / arabchadan A. Mansur tarj. — Toshkent: Movarounnahr, 2017. — 112 b.
3. Nasr S. H. *An introduction to Islamic cosmological doctrines.* — Albany: State University of New York Press, 1993. — 350 p.
4. Xayrullayev M. M. *Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkirlari.* — Toshkent: Fan, 1971.
5. Wensinck A. J. *Ghazali’s Mishkat al-Anwar (Niche of Lights).* — Leiden: Semietische Studien, 1941.
6. Gairdner W. H. T. *Al-Ghazali’s Mishkat al-Anwar (The Niche for Lights).* — London: Royal Asiatic Society, 1924. — 102 p.
7. Griffel F. *Al-Ghazali’s philosophical theology.* — Oxford: Oxford University Press, 2009. — 408 p.
8. Moad E. O. *Al-Ghazali’s reflections on the metaphysics of metaphor in the Mishkāt al-Anwar* // Springer. — 2007. — Vol. 2.
9. Watt W. M. *A forgery in al-Ghazālī’s Mishkāt?* // *Journal of the Royal Asiatic Society.* — 1949.
10. Navoiy A. *Nasoyimul-muhabbat min shamoyimul-futuvvat.* — Toshkent: Fan, 2001.
11. Pratama M., Erawati D., Faridatunnisa N., Mualimin M. *Julia Kristeva intertextual reconfiguration of interpretation of Rūḥ al-Qudus: an analysis of Tafsīr ath-Ṭhabarī and al-Kabīr on Q.S. Al-Baqarah [2]:87* // *Jurnal Ushuluddin.* — 2025. — DOI: 10.24014/jush.v33i2.38735
12. Wulandari W., Zuhri A., Al-Rasyid H. *Makna al-Miṣbāḥ perspektif Imam Fakhruddīn al-Rāzī dalam Tafsir Mafātīḥ al-Ghayb* // *Kamaya: Jurnal Ilmu Agama.* — 2025. — DOI: 10.37329/kamaya.v8i4.4833.